

## SUN'IY INTELEKT, INNOVATSION METODLAR VA GIBRID TA'LIM INTEGRATSIYASI ASOSIDA INKLYUZIV TIL TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Nigora Abdug'aniyevna SULTONOVA**

[nigorasultonova2188@gmail.com](mailto:nigorasultonova2188@gmail.com)

Katta o'qituvchi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada inklyuziv til ta'limi jarayonida sun'iy intellekt (SI), innovatsion pedagogik metodlar va gibrid ta'lim texnologiyalarini integratsiya qilish masalasi har tomonlama tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida turli ehtiyoj va qobiliyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarni sifatli bilim bilan ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv platformalar, raqamli baholash tizimlari hamda shaxsiylashtirilgan topshiriqlar o'quvchilarning individual o'rganish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Innovatsion metodlar, jumladan, task-based learning, project-based learning, flipped classroom hamda kooperativ ta'lim modellaridan foydalanish til o'rganish jarayonini faol, kommunikativ va amaliy yo'naltirish imkonini beradi. Gibrid ta'lim esa an'anaviy sinf mashg'ulotlari bilan masofaviy ta'lim imkoniyatlarini uyg'unlashtirib, barcha talabalarning teng ishtirok etishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, SI texnologiyalaridan foydalanish til o'rgatish jarayonida baholashni avtomatlashtirish, fidbek tezligini oshirish va rivojlantiruvchi topshiriqlarni moslashtirish imkonini beradi. Integrativ pedagogik model o'quvchilarning o'qish, tinglash, yozish va gapirish ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv inklyuziv muhitda o'quvchilarning kommunikativ faolligi, o'z-o'zini baholash hamda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, Inklyuziv ta'lim, Innovatsion metodlar, Gibrid ta'lim, Shaxsiylashtirilgan o'qitish, Baholash tizimlari, Kommunikativ kompetensiya, Raqamli pedagogika.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimi barcha o'quvchilarga teng imkoniyat yaratishni, turli ehtiyoj va qobiliyatlarga ega bo'lgan shaxslarni sifatli ta'lim bilan ta'minlashni asosiy vazifa sifatida belgilab bormoqda. Til ta'limi jarayonida inklyuziv yondashuvni rivojlantirish bu boradagi eng muhim yo'nalishlardan biridir. Chunki o'quvchilar o'rtasidagi individual farqlar – eshitish, ko'rish, nutq yoki psixologik rivojlanishdagi cheklovlar, ijtimoiy muhitdagi tengsizliklar, o'quv motivatsiyasining pastligi – an'anaviy metodlar bilan bartaraf etilishi qiyin bo'lgan murakkab vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli inklyuziv til ta'limini yanada samarali tashkil etish uchun yangi texnologiyalar, innovatsion pedagogik metodlar va moslashuvchan ta'lim modellarini uyg'unlashtirish zarur.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi til ta'limida butunlay yangi bosqichni boshlab berdi. Adaptiv o'quv platformalari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, matnni tahlil qiluvchi algoritmlar, nutqni aniqlash va avtomatik tarjima vositalari inklyuziv o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratadi. Ayniqsa, SI asosidagi shaxsiylashtirilgan topshiriqlar va individual o'rganish yo'llari o'quvchilarning ehtiyojiga



mos ravishda moslashtirilishi bilan samaradorlikni oshiradi (Holmes et al., 2019). Bundan tashqari, sun'iy intellekt nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun ekranni ovoqli o'qish, vizual materiallarni soddalashtirish yoki nutq terapevtik mashqlarni taklif qilish orqali inklyuziv jarayonning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Innovatsion metodlar – masalan, task-based learning, project-based learning, flipped classroom, interaktiv raqamli o'yinlar va kollaborativ ta'lim – o'quvchilarning faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini va kommunikativ kompetensiyasini oshiradi (Ellis, 2003; Bell, 2010). Bunday metodlar ayniqsa inklyuziv guruhlarda ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular turli darajadagi o'quvchilar o'rtasidagi teng ishtirokni qo'llab-quvvatlaydi.

Gibrid ta'lim modeli esa an'anaviy darslar bilan masofaviy o'quv jarayonini birlashtirgan holda, o'quvchilarga vaqt va joy bo'yicha moslashuvchanlik beradi. Bu model sog'lig'ida muammosi bo'lgan, auditoriyaga muntazam qatnasha olmaydigan yoki qo'shimcha yordamga ehtiyoj sezadigan o'quvchilar uchun ayniqsa qulay hisoblanadi (Garrison & Vaughan, 2016). Gibrid ta'limning SI va innovatsion metodlar bilan uyg'unligi yanada kuchli inklyuziv o'quv muhiti yaratishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Sun'iy intellekt, innovatsion metodlar va gibrid ta'lim o'zaro integratsiyasi bo'yicha xalqaro ilmiy izlanishlar bugungi kunda keskin ortmoqda. Xalqaro doirada olib borilgan tadqiqotlar, xususan Holmes, Bialik va Fadel (2019) SI texnologiyalarining ta'lim tizimida moslashuvchan individual o'rganish yo'llarini yaratishdagi rolini chuqur tahlil qiladi. Ularning fikricha, sun'iy intellekt o'quvchilarning o'qish tezligini, tushunish darajasini, xatolarni aniqlash xususiyatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini berib, bu natijada baholashning aniqligini oshiradi. Ellis (2003) esa vazifaviy o'qitish (task-based learning) metodining kommunikativ til o'qitishdagi samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab beradi. Bunday yondashuv inklyuziv guruhlarda o'quvchilarni faol o'rganishga jalb etadi.

Garrison va Vaughan (2016) asarlarida gibrid ta'lim modeli zamonaviy ta'limning asosiy paradigmasiga aylandi. Ularning tadqiqotlari ko'ra, aralash o'qitish modeli turli ehtiyojga ega o'quvchilar uchun moslashuvchan o'quv muhiti yaratadi. Flipped learning modelining (Bergmann & Sams, 2012) qo'llanishi ham o'quvchilarni mustaqil o'qishga rag'batlantirib, auditoriyadagi faol o'zaro ta'sirni kuchaytiradi.

MDH hududidagi ilmiy manbalar ham integrativ yondashuvning muhimligini ta'kidlaydi. Masalan, Samoylenko (2010) kommunikativ metodlar til o'rgatishda ijtimoiy faollik va muloqot jarayonining markaziy o'rnini ko'rsatadi. Muratov (2001) o'qish ko'nikmalarini mustahkamlashda moslashtirilgan matnlar va topshiriqlar muhimligini asoslaydi. Kozheteva (2012) esa diplomatik diskurs misolida til o'qitishda pragmatik kompetensiyaning ahamiyatini ochib beradi. Ushbu manbalarda innovatsion metodlar til o'rgatishda muloqotchanlik va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etiladi.

O'zbekiston kontekstida inklyuziv ta'lim so'nggi yillarda davlat siyosati sifatida rivojlanmoqda. Mahalliy tadqiqotlarda Muhiddinova va Abdullayeva (1997) rasmiy uslubni o'rgatishda moslashtirilgan materiallarning samaradorligini e'tirof etadi. Sobirova (2023) o'z tadqiqotida gibrid platformalar orqali o'quvchilarning til o'rganish motivatsiyasi va ishtiroki oshganini ko'rsatadi. Djumaeva va hamkorlari (2024) raqamli texnologiyalar yordamida ESP o'rgatishning natijalari haqida amaliy ma'lumotlar beradi. Abdullaeva

(2021) esa SI asosidagi adaptiv baholash vositalari o'quvchilar mustaqilligi va samaradorligini oshirganini tasdiqlaydi.

Ushbu tadqiqotlar umumlashtirilganda, SI texnologiyalari o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, innovatsion metodlar faol o'qitishni kuchaytirish, gibrid ta'lim esa inklyuzivlikni kengaytirish uchun eng muhim omillar ekani ko'rinadi. Inklyuziv til ta'limida bu uch yo'nalishning uyg'unlashuvi o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qamrab olgan holda samarali ta'lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Tahlil va muhokamalar.** Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt, innovatsion metodlar va gibrid ta'limning uyg'un qo'llanishi inklyuziv til ta'limida samarali natijalar berishini ko'rsatdi. Eng avvalo, SI texnologiyalari o'quvchilarning o'qish va topshiriq bajarish jarayonidagi zaif joylarini avtomatik aniqlash orqali o'qituvchiga aniq diagnostika taqdim etadi. Bu, ayniqsa, maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun juda muhim, chunki ular ko'proq individual yondashuv, maxsus moslashtirilgan materiallar va tez-tez qayta izohga ehtiyoj sezadilar. SI tizimlari esa bu jarayonni avtomatlashtiradi va o'quv jarayonidan ortiqcha yukni olib tashlaydi.

Innovatsion metodlar o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik integratsiyasini ta'minlashga yordam beradi. Masalan, project-based learning modeli orqali o'quvchilar kichik guruhlarda ishlaydi, bu esa nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhitini yaratadi. Task-based learning metodi ingliz tilini o'rganishda real vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali kommunikativ kompetensiyani oshiradi. O'quvchilar vazifa bajarish jarayonida o'z rollarini topib, teng imkoniyat asosida muloqot qiladi.

Gibrid ta'lim modeli esa barcha o'quvchilar uchun moslashuvchanlik va qulaylik yaratadi. Auditoriyaga kira olmaydigan yoki sog'lig'i bo'yicha cheklovga ega o'quvchilar onlayn darslarda ishtirok etish orqali bilim olishda davom etadi. Bu model o'quv jarayonini uzluksiz va moslashtirilgan holda olib borishga imkon beradi. Aynan shu jihat inklyuziv ta'lim uchun muhim, chunki har bir o'quvchiga o'z holatiga qarab turli kirish yo'llari kerak bo'ladi.

Shuningdek, SI, innovatsion metodlar va gibrid ta'lim birgalikda qo'llanganda o'quvchilarning motivatsiyasi keskin oshadi. O'quvchilar texnologiyaga asoslangan o'yinlar, chatbotlar bilan suhbat, virtual laboratoriyalar va interaktiv materiallar orqali darsga qiziqish bilan qatnashadi. Bu amaliyot O'zbekistonda olib borilgan tajribalar bilan ham tasdiqlangan (Sobirova, 2023).

Ammo ayrim muammolar ham mavjud. O'qituvchilarning texnologik savodxonligi yetarli bo'lmaganda SI asosidagi platformalar to'liq ishlatilmaydi. Shuning uchun pedagoglar uchun malaka oshirish kurslari zarur. Shuningdek, SI ma'lumotlar maxfiyligi, etik foydalanish va texnik infratuzilma kabi masalalar ham e'tibor talab qiladi. Shu bilan birga, bu muammolar yechimga ega bo'lgan, vaqt davomida bartaraf etiladigan muammolardir.

Inklyuziv til ta'limida SI, innovatsion metodlar va gibrid ta'limning integratsiyasi quyidagi amaliy modellar orqali qo'llanilishi mumkin:

1. Sun'iy intellektga asoslangan shaxsiylashtirilgan topshiriqlar

AI platformalari o'quvchining darajasiga qarab matn murakkabligini avtomatik o'zgartiradi. Masalan, ko'rishida muammosi bor o'quvchilar uchun matnni ovozli shaklda



berish, disleksiyasi bor o'quvchilar uchun bo'laklarga bo'lingan soddalashtirilgan matn yaratish mumkin.

### 2. Flipped Classroom + AI monitoring

Uyda SI yordamidagi videodarslarni tomosha qilgan o'quvchilar auditoriyada amaliy mashqlar bajaradi. AI monitoring vositalari o'quvchilarning darsga tayyorlik darajasini aniqlaydi.

### 3. Task-Based Learning'da AI yordamchi

O'quvchilar chatbot bilan muloqot qilgan holda "restoranda buyurtma berish", "yo'l so'rash" kabi vazifalarni bajaradi. SI grammatik xatolarni aniqlab, real vaqqli fikr-mulohaza beradi.

### 4. Project-Based Learning'da Gibril Hamkorlik

Onlayn va offlayn o'quvchilar birgalikda loyiha yaratadi: masalan, "Turistik yo'l-yo'riq bukleti" yaratish. SI dizayn va matnni tekshirishda yordam beradi.

### 5. Nutqni rivojlantirish uchun AI Speech Recognition

Eshitishida muammosi bor o'quvchilar uchun matnni subtitrlil tarzda berish, talaffuzni o'rganuvchilar uchun esa avtomatik fonetik tahlil.

### **Xulosa**

Sun'iy intellekt, innovatsion metodlar va gibril ta'limning integratsiyasi inklyuziv til ta'limida yangi sifat bosqichini yaratadi. SI o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, baholashni avtomatlashtirish va maxsus ehtiyojlarga moslashtirilgan materiallar yaratishda muhim o'rin tutadi. Innovatsion metodlar o'quvchilarning faol va kommunikativ ishtirokini ta'minlaydi, gibril ta'lim esa barcha o'quvchilarga moslashuvchan ta'lim imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu uch yo'nalishning uyg'unlashuvi o'quvchilarning til ko'nikmalari, mustaqilligi, motivatsiyasi va ijtimoiy integratsiyasini kuchaytiradi. Shuningdek, bu yondashuv O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan raqamlashtirish va inklyuzivlik siyosatiga to'liq mos keladi. Kelajakda SI texnologiyalarining rivojlanishi inklyuziv til ta'limini yanada takomillashtirishi, innovatsion metodlar esa o'quv jarayonini yanada interaktiv va amaliy qilishda davom etishi kutiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdullaeva, N. A. (2021). *Innovative assessment strategies in inclusive language education*. Tashkent: Fan.
2. Bell, S. (2010). Project-based learning for the 21st century. *The Clearing House*, 83(2), 39–43.
3. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). *Flip your classroom: Reach every student in every class every day*. ISTE.
4. Djumaeva, G., Doniyorova, D., Jabborova, B., & Toshmamatov, A. (2024). Technology for teaching ESP to those studying ecology and environmental sustainability. *BIO Web of Conferences*, 1–8.